

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI  
IJTIMOIY - MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTIDA ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/08.05.2024.F.135.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**SHUKUROV ASILBEK KOMOLBEKOVICH**

**O'ZBEKISTON VA SAUDIYA ARABISTONI O'RTASIDAGI SIYOSIY VA  
SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLAR**

**23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining  
siyosiy muammolari**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Qo'lyozma huquqida**  
**UO'K: 327(532)**  
**KBK: 65.01**  
**Sh - 53**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD)**  
**avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации**  
**доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract**  
**the Doctor of philosophy (PhD) in political Sciences**

**Shukurov Asilbek Komolbekovich**

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi siyosiy va savdo-  
iqtisodiy munosabatlar.....3

**Shukurov Asilbek Komolbekovich**

Political and trade-economic relations between Uzbekistan and Saudi  
Arabia.....25

**Шукуров Асилбек Комолбекович**

Политические и торгово-экономические отношения между  
Узбекистаном и Саудовской Аравией.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

List of published works

Список опубликованных работ

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI  
IJTIMOIY - MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTIDA ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/08.05.2024.F.135.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**SHUKUROV ASILBEK KOMOLBEKOVICH**

**O'ZBEKISTON VA SAUDIYA ARABISTONI O'RTASIDAGI SIYOSIY VA  
SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLAR**

**23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining  
siyosiy muammolari**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ss498 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Sayfullayev Durbek Baxtiyorovich</b> Tarix fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Ubaydullayeva Saodat Fathullayevna</b> Siyosiy fanlar doktori, dotsent <b>Rizayev Aziz Raxmdjanovich</b> Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Xalqaro islomshunoslik akademiyasi</b>

Dissertatsiya himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2024.F.135.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq\_ilmiy@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Mavrulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

**A.I.Suvanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori, dotsent

**S.A. Jo'rayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Zamonaviy xalqaro munosabatlarda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar tashqi siyosatni uzoqni ko‘zlagan holda olib borishni, xalqaro aloqalar geografiyasini kengaytirishni va an’anaviy hamkorlar bilan aloqalar ko‘lamini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. O‘zbekistonning Ko‘rfaz arab mintaqasi, jumladan Saudiya Arabistoni Podshohligi bilan mavjud aloqalarini yanada kengaytirish, yangi va istiqbolli yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, keng mintaqalarni bog‘lovchi va O‘zbekistonni jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo‘laklarini shakllantirishga qaratilgan tashqi siyosat strategiyasining ustuvor maqsadlari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Bugun xalqaro munosabatlar tizimidagi muhim aktorlardan biri sifatida rivojlangan siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatga ega bo‘lib borayotgan Saudiya Arabistoni taraqqiyotining asosiy modelini aniqlash zarurati ilmiy tadqiqot institutlarining diqqat-e’tibori va qiziqishiga sabab bo‘lmoqda. Shu jihatdan, O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar munosabatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini retrospektiv va perspektiv yondashuvlar asosida tadqiq etish so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining Fors ko‘rfazi arab mintaqasidagi rivojlangan davlatlar bilan yaqin munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi, eng avvalo, dunyo davlatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy sohalarda hamkorlik o‘rnatishi va milliy manfaatlarini himoya qilishida muhim o‘rin tutmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ushbu hamkorlikning tashkiliy va huquqiy asoslari yaratildi, nufuzli xalqaro tashkilotlar va turli davlatlar bilan barcha sohalarda o‘zaro manfaatli aloqalar yo‘lga qo‘yilib, qator ijobiy natijalar qo‘lga kiritildi.

Jahonda ikki tomonlama manfaatli hamkorlik aloqlari integratsiyasi kuchayib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari ham ikki davlat manfaatlariga xizmat qilmoqda. Ushbu aloqalarning jadallashib, kengayib borayotgani mintaqamiz, qolaversa, dunyoning rivojlanish istiqbollari bevosita ta’sir etmoqda. Shuningdek, “ulkan iqtisodiy, tabiiy va intellektual resurslarga ega bo‘lgan Ko‘rfaz davlatlarining global barqarorlik va energetik xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni beqiyosdir. Ayni paytda Markaziy Osiyo va Ko‘rfaz davlatlari bir-birlariga ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida qaramoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekistonning Ko‘rfaz mamlakatlari bilan aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilgan...”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ko‘rfaz arab davlatlari — Markaziy Osiyo” oliy darajadagi birinchi sammitidagi nutqi. 19.07.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6494>

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-fevral, PF-60-son), “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 15-noyabr, PF-5876-son), “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-aprel, PF-540-son) farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi (2018-yil 28-noyabr, PQ-4038-son), “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020-yil 16-aprel, PQ-4680-son) qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning O‘zbekiston tashqi siyosati, xususan Saudiya Arabistoni bilan strategik hamkorlik aloqalari, munosabatlarni iqtisodiy rivojlantirishga oid konseptual va strategik g‘oyalari tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etgan<sup>2</sup>.

O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlar yurtimiz olimlari tomonidan mustaqil tadqiqot ob’ekti sifatida yetarli o‘rganilmagan. O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlarga oid ilmiy tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratib, tahlil qilish mumkin.

---

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 456 б.; Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг – иши ҳам улуг, ҳаёти ҳам ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.; Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.; Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati. 20.09.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6677>

**Birinchi guruh** tadqiqotlarida o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlari qamrab olingan bo‘lib, O‘zbekiston tashqi siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari, Saudiya Arabistonining bugungi ichki va tashqi siyosati, shuningdek, O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlar atroflicha yoritilgan. Jumladan, Z. Munavvarov, M. M. Muhammadsidiqov, A. A. Abdullayev, A. Rizayev, A. A. Abdisattorov, A. Y. Neymatov, S. M. G‘ofurov, M. Sh. Tolipov, Sh. Yovqochev, M. M. Mirabzalov, F. O. Qo‘ysinova, D. I. Madaminova, A. K. Kurbanov, D. B. Sayfullayev, M. Rahimov, S. A. Pulatova, D. B. Nishonov, D. B. Raximberdiyeva<sup>3</sup> va boshqalar.

**Ikkinchi guruh** tadqiqotlari doirasiga MDH davlatlari olimlarining Ko‘rfaz arab davlatlari siyosiy holati va tashqi siyosiy munosabatlari, shuningdek, Saudiya Arabistoni tashqi siyosati va uning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan aloqalari kabi masalalarni qamrab olgan ilmiy ishlarni kiritish mumkin. Xususan, E. Melkunmyan, A. Subxim, N. A. Baranov, R. Landa, A. Ignatinko, G. K. Kosach, I. P. Bolyayev, A. Subxim, V. Bodyanskiy, V. Lazerov, A. Vasilev, M. M. Lebedev, A. Y. Melvil, E. A. Pozdnyakov, A. B. Torkunov, P. A. Sigankov, I. Kryuchkov, M. A. Safronova, B. Dikanya<sup>4</sup> kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

**Uchinchi guruhga** g‘arb olimlarining hozirgi dunyo tartibotining xususiyatlari hamda davlatlarning bugungi xalqaro munosabatlardagi roliga doir tadqiqotlari, shuningdek, arab olimlarining Saudiya Arabistonining ichki va tashqi siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Jumladan, tadqiqot mavzuga oid masalalar K. Waltz, N. Patrik, Z. K. Bjezenski, F. Fukuyama, N. Fergyson, J. Nay, R. O. Kohone, S. Hantington, M. Shou, G. Sorensen G. Morgentau, P. J. Buchanan, I. M. Vallershteyn, P. F. Drucker hamda Muhammad Nurizamon, Al-Sudairiy, M. Bassim<sup>5</sup> va boshqa xorijiy mualliflarning asarlarida ko‘rib chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar mavzuni o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan, ammo har bir tadqiqotchi muammoni, avvalo, o‘z mamlakatining milliy manfaatlari nuqtai nazaridan o‘rgangan. Tadqiqotlar doirasida O‘zbekiston tashqi siyosati, uning Saudiya Arabistoni bilan hamkorlik aloqalarini tahlil qilish borasida nazariy va amaliy yo‘nalishlarda muayyan natijalarga erishilgan, biroq aynan O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish masalalari atroflicha tadqiq etilmagan. Shu bois dissertatsiyada mazkur muammoni kompleks tadqiq etish vazifasi qo‘yilgan.

---

<sup>3</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan

<sup>4</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan

<sup>5</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 10-raqamli "Sharq mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlarni tarixiy rivojlanish jarayonida, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlik doirasida o'rganish, aloqalarning hozirgi holati va istiqbollarini bugungi voqelik asosida tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini tadqiq etishning nazariy masalalari o'rganish va tahlil qilish;

O'zbekistonning arab davlatlari bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish;

Saudiya Arabistoni tashqi siyosatining konseptual asoslari va rivojlanish tendensiyalari ochib berish;

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etish;

davlatlararo ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalarning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini ochib berish;

xalqaro tashkilotlar doirasidagi O'zbekiston-Saudiya Arabistoni aloqalari tahlilini amalga oshirish;

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorligining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni savdo-iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish masalalarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlar etib belgilangan.

**Tadqiqot predmetini** esa O'zbekiston va Saudiya Arabistoni bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi ikki va ko'p tomonlama aloqalari va ularning rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlash borasidagi hamkorligining xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, kuzatish, kontent va ivalent-tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Saudiya Arabistoni Podshohligining "Yashil Yaqin Sharq" konsepsiyasi Yaqin Sharq mintaqasini barqaror iqtisodiy rivojlantirish, ekologik inqirozni oldini olish borasidagi innovatsion yondashuvlari hamda muqobil yashil energiya

resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan “Nigoh-2030” dasturida belgilangan ustuvor vazifalar orqali amalga oshirilayotgani asoslab berilgan;

“Markaziy Osiyo – Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” formati doirasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan “Transport-logistika bog‘lanishi shartnomasi” loyihasini ishlab chiqish zaruriyati, O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo va Ko‘rfaz mintaqasini o‘zaro bog‘lashdagi strategik hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish hamda mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqot o‘rnatishga qaratilgan tashqi siyosat strategiyasiga ko‘ra dalillangan;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosati, Ko‘rfaz arab davlatlari bilan o‘zaro siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari Saudiya Arabistoni Podshohligining “Nigoh-2030” strategik dasturida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va vazifaviy jihatlariga ko‘ra uyg‘un va mushtarak ekanligi isbotlangan;

Saudiya Arabistonining islom moliyasi sohasida qo‘lga kiritgan boy tajribasi va foydalanish amaliyotini e‘tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining moliya va raqamli iqtisodiyot sohalarini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, mamlakatimizda islom moliyasi tizimini yaratish, hamda mazkur tizimning imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida O‘zbekistonda Islom moliyasini o‘rganish institutini tashkil etish lozimligi taklifi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonning Saudiya Arabistoni bilan ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlik munosabatlarini tadqiq etishda O‘zbekiston Respublikasining Milliy arxivi, Tashqi ishlar vazirligi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda boshqa tashkilotlarining joriy arxivlaridagi ma‘lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy muomalaga kiritilgan;

bu ikki davlatning diplomatik aloqalarini ilmiy jihatdan o‘rganish asosida ta‘lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan nazariy-metodik jihatlar aniqlangan;

O‘zbekiston Respublikasining SAP bilan strategik sheriklikka asoslangan ikki va ko‘p tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy hamkorligini takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ularning respublika darajasida va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy anjumanlar materiallarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro‘yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e‘lon qilinganligi, amaliyotda joriy etilib, vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangani bilan ta‘minlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning materiallari siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida "Konfliktologiya", "Siyosatshunoslik", "Geosiyosat", "Jahon siyosati" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlarini tadqiq etish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosati, Ko'rfaz arab davlatlari bilan o'zaro siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari Saudiya Arabistoni Podshohligining "Nigoh-2030" strategik dasturida belgilangan ustuvor yo'nalishlar va vazifaviy jihatlariga ko'ra uyg'un va mushtarak ekanligi borasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining "Janubiy Osiyo, Yaqin, O'rta Sharq va Afrika davlatlari bilan hamkorlik" boshqarmasi tomonidan foydalanildi. (*O'zbekiston Respublikasi TIVning 2025-yil 9-apreldagi №14/431 ma'lumotnomasi*). Natijada mazkur takliflar sohaning me'yoriy-huquqiy va axborot-tahliliy bazasini takomillashtirish va ularni amaliy qo'llashga xizmat qildi.

"Markaziy Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" formati doirasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan "Transport-logistika bog'lanishi shartnomasi" loyihasini ishlab chiqish zaruriyati, O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mintaqasini o'zaro bog'lashdagi strategik hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish hamda mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli va doimiy muloqot o'rnatishga qaratilgan tashqi siyosat strategiyasiga ko'ra asoslanishiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan qo'mitasi ish faoliyati va axborot tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 16-apreldagi 02-02/02/1/1028-son ma'lumotnomasi*). Natijada mazkur takliflar sohaning me'yoriy-huquqiy va axborot-tahliliy bazasini takomillashtirish va ularni amaliy qo'llashga xizmat qildi.

Saudiya Arabistoni Podshohligining “Yashil Yaqin Sharq” konsepsiyasi Yaqin Sharq mintaqasini barqaror iqtisodiy rivojlantirish, ekologik inqirozni oldini olish borasidagi innovatsion yondashuvlari hamda muqobil yashil energiya resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan “Nigoh-2030” dasturida belgilangan ustuvor vazifalar orqali amalga oshirilayotgani borasidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan vazirlik va idoralarga yuboriladigan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasining 2025-yil 15-apeldagi 14-07-96-son ma’lumotnomasi*). Natijada mazkur takliflar sohaning me’yoriy-huquqiy va axborot-tahliliy bazasini takomillashtirish va ularni amaliy qo‘llashga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, Respublika miqyosida 3 ta va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinib maqullangan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda sakkizta ilmiy maqola (6 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, uchta bob va sakkiz paragrafni o‘z ichiga olgan. Shuningdek, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning tadqiqot qismi 144 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o‘rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog‘liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan. Tadqiqning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko‘rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e‘lon qilingan ishlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida arab davlatlari vektorini tadqiq etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat konsepsiyasi, unda arab mintaqasi davlatlari yo‘nalishi hamda ular bilan hamkorlik aloqalari borasida nazariy yondashuvlar tahlil etilgan.

Xususan, **“O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini tadqiq etishning nazariy masalalari”** deb nomlangan birinchi paragrafda O‘zbekiston tashqi siyosatining konseptual-huquqiy asoslari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi qonun hujjatlari, davlat rahbarlarining bayonotlari va tashabbuslari o‘rganilgan. Shuningdek bu borada bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan O‘zbekiston tinchlik, totuvlik, qurolsizlanish, o‘z hududini begona harbiy bazalardan xoli qilish, yadroviy va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarini saqlamaslik, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo‘l qo‘ymaslik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquq qoida va normalariga og‘ishmay rioya etayotgani ko‘rsatilgan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy islohotlar, eng avvalo, fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning xalqaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan keng e‘tirof etilib, mamlakatning xalqaro maydondagi siyosiy nufuzi yuksalishiga xizmat qilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda keyingi yillarda tashkil etilayotgan turli xalqaro siyosiy, savdo-iqtisodiy sammit va forumlarda dunyo jamoatchiligi keng ishtirok etayotgani ana shundan dalolat bermoqda. Shundan kelib chiqib, hozirgi kunda nufuzli ekspertlar, ilmiy jamoatchilik vakillari, davlat va jamoat arboblari tomonidan O‘zbekistonda amalga

oshirilayotgan islohotlarni hamda respublikaning xalqaro munosabatlardagi ishtirokini ikki bosqichda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1991–2016-yillarni qamrab olgan birinchi bosqichda suveren mamlakat tajribasida ilk bor xalqaro siyosiy, savdo-iqtisodiy munosabatlar shakllandi. O‘zbekistonning xalqaro darajadagi siyosiy ishtiroki hamda savdo-iqtisodiy aloqalari ikki va ko‘p tomonlama munosabatlar asosida yanada mustahkamlandi, uning dinamikasida turli siyosiy jarayonlar va xalqaro munosabatlar bilan bog‘liq faollashuv va susayish jarayonlari kuzatildi. Xalqaro miqyosdagi siyosiy, savdo-iqtisodiy munosabatlarning evolyusiyasi mamlakat rahbariyatining siyosiy irodasi va savdo-iqtisodiy imijini xalqaro miqyosda tanitdi hamda targ‘ib qildi.

2016-yildan keyingi yillarni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqichda mamlakatning tashqi siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarida yangi yo‘nalishlar ochildi. Jumladan, O‘zbekistonda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy va turistik sohalarda yangi yo‘nalishlardagi xalqaro tadbir va forumlar tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonning mintaqaviy va global jarayonlardagi faollashuvi, boshqa davlatlar bilan siyosiy hamda iqtisodiy yaqinlashuvi ularning siyosiy va savdo-investitsiyaviy aloqalarida ham namoyon bo‘ldi. Bu, avvalo, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasini o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilagani hamda dunyoning turli mintaqalari, xususan Ko‘rfaz arab davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarini faollashtirganida ko‘zga tashlandi.

Ma‘lumki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston jahon mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Xalqaro siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalar O‘zbekistonning rivojlanishi, xalqaro munosabatlarning to‘laqonli ishtirokchisi sifatida tan olinishi, tashqi siyosatida o‘z yo‘nalishini tanlab, jahonning yetakchi va rivojlangan davlatlari bilan teng asosda ikki va ko‘p tomonlama aloqalar o‘rnatishida katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro siyosiy aloqalari va savdo-iqtisodiy hamkorligi mamlakatning xalqaro imiji va nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida O‘zbekiston Respublikasining arab davlatlari bilan o‘zaro munosabatlari dinamikasi hamda ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy izlanishlari kompleks tarzda o‘rganilgan, ularning nazariy yondashuvlari tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizning arab davlatlari bilan munosabatlarida uchrayotgan muammolar, ularni hal qilishga doir takliflar atroflicha tadqiq etilgan, mahalliy va xorijiy olimlarning bu boradagi ilmiy farazlari o‘rganilgan hamda ularning yondashuvlarini tadqiq etgan holda tegishli xulosalar taqdim etilgan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston jahonda zamonaviy diplomatik aloqalarni mustaqil ravishda amalga oshirayotgan tinchliksevar davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, uning pragmatik tashqi siyosat yuritishida,

nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishda diplomatiyaning ustuvorligiga tayanishida, shuningdek, savdo-iqtisodiy aloqalarda o‘zaro ishonchli sheriklikka asoslanishida namoyon bo‘lmoqda. Bugun Ko‘rfaz arab davlatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik barcha jabhalarda davom etmoqda. O‘zbekistonda ushbu davlatlarning elchixonalari ishlab turibdi. Jumladan, SAP, BAA, Qatar, Ummon sultonligi, Quvayt Amirligi, Misr Arab Respublikasi kabi davlatlar bilan hamkorlik aloqalari ularning ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy munosabatlari jarayonida izchil rivojlanib, takomillashib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Ko‘rfaz arab davlatlari bilan aloqalari, avvalo, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda O‘zbekiston hukumati tomonidan tasdiqlangan respublikamizning arab mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorligini yanada rivojlantirish bo‘yicha tadbirlar dasturi alohida ahamiyatga molik. Mazkur davlatlar bilan siyosiy muloqotlar oliy va yuqori darajalarda amalga oshirilmoqda.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi Saudiya Arabistoni tashqi siyosatining konseptual-huquqiy asoslarini tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda asosan SAP davlat boshqaruvi, tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda bugungi o‘zgarishlari tahlil etilgan.

Saudiya Arabistonning bugungi tashqi siyosati va mintaqaviy geosiyosatini aks ettiruvchi “Nigoh — 2030”, “Yashil Yaqin Sharq”, “Yashil Saudiya Arabistoni” singari konsepsiyalari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakatning tabiiy energiya resurslariga qaramligini tugatish maqsadini ko‘zlaganidan dalolat beradi. Disertatsiyada bunday qarashlar Saudiya Arabistoni Podshohligi o‘zining bugungi tashqi siyosatida mintaqaviy kuch bo‘lish orqali faqat g‘arb davlatlari bilan hamkorlik qilishdan chekinayotganligi hamda ko‘p vektorli tashqi siyosat modelini qo‘llayotgani haqida xulosa chiqarilgan.

Saudiya podshohlik oilasi, xususan, valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon mamlakatni 2030-yilgacha jahondagi yetakchi kuch markazlaridan biriga aylantirish uchun quyidagi uchta ustuvor vazifa mavjud deb hisoblaydi: davlatning arab-musulmon dunyosining markazi sifatidagi yetakchilik maqomini saqlab qolish; investitsiyaviy salohiyati va strategik qulay joylashuvidan foydalanib, xalqaro savdoni boshqarish markazlaridan biriga aylanish; shu orqali Afrika, Osiyo va Yevropani birlashtiruvchi kuch maqomiga ega bo‘lish. Shu jihatdan, ulkan iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan SAP bilan hamkorlik mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida qo‘l kelishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobi O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni aloqalarining evolyusion

bosqichlari, konseptual huquqiy asoslari, tashqi siyosiy yo‘nalishlari, o‘zaro hamkorlikda foydalanilayotgan asosiy sohalarini hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi paragrafida yangi O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlarining bugungi bosqichiga xos xususiyatlar, siyosiy aloqalarning shakllanishi hamda o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlar, shuningdek, savdo-iqtisod, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi hamkorlikning muhim jihatlari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi SAPning sarmoyaviy imkoniyatlaridan foydalanib, neft-gaz va energetika, qishloq xo‘jaligi va turizm sohalarini rivojlantirish uchun moliyaviy va texnik yordam olishi, hamkorlik aloqalari orqali ikki davlat o‘rtasida tajriba va bilim almashish, ta‘lim dasturlari, madaniy meros, tibbiy texnologiyalar va amaliyotlar almashinuvini rivojlantirishi mumkinligi borasida xulosalar chiqarilgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida ikki tomonlama hamkorlikning ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatlari hamda rivojlanish tendensiyalari tadqiq etilgan. Unda asosan SAP va O‘zbekistonning tashqi siyosatida strategik sheriklik munosabatlari ustuvor ekanligi, ikki xalq o‘rtasidagi aloqalar tarixiy, geosiyosiy va geostrategik ahamiyatga egaligi ko‘rsatilgan. O‘zbekiston va SAP o‘rtasidagi hamkorlik jadal rivojlanib, yetuklik va barqarorlikning yangi bosqichiga o‘tgani, 2016-yildan boshlab o‘zaro munosabatlarda faol harakat va turli yo‘nalishlardagi hamkorlik tizimli rivojlanib, kompleks tus olgani qayd etilgan.

SAP hozirgi O‘zbekiston hududida yashab ijod qilgan musulmon olamining buyuk mutafakkir va allomalari islom sivilizatsiyasining rivojiga qo‘shgan katta hissani, Arabiston yarim oroli va Movarounnahr o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni yuksak qadrlaydi. Bu esa madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash uchun qulay shart-sharoit yaratib, turizm sohasida, jumladan, muqaddas qadamjolarini ta‘mirlab, ziyorat turizmini rivojlantirishda hamkorlik qilish uchun keng istiqbollari ochadi.

SAP qadimiy madaniy meros obidalari, islom olamining muqaddas tarixiy maskanlari va an‘anaviy qadriyatlarga ega mamlakatdir. Bu omillar turizm sohasi rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston uchun turizm sohasi yaxshi rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o‘rganish juda muhim. Ayni vaqtda, O‘zbekistonga SAPdan ham ko‘plab sayyohlar tashrif buyurishiga erishish lozim. Bunda, asosan, ziyorat turizmini rivojlantirib, islom olamida tanilgan buyuk allomalar va muhaddislarning madaniy me‘rosidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi bilan Saudiya Arabistoni o‘rtasida turizm sohasidagi hamkorlik kuchayib, turli xalqaro tadbirlar tashkil etilmoqda.

Bugun davlatlararo munosabatlarni yanada chuqurlashtirishning yangi mexanizmlarini izlab topish, ishga solish va yangi sifat darajasiga ko‘tarish uchun

qulay imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. “Nigoh — 2030” dasturi doirasida Saudiya Arabistoni O‘zbekistonga yangicha nazar bilan qarayotgani, bu esa hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga xizmat qilayotgani, hamkorlikni rivojlantirish uchun o‘ndan ortiq istiqbolli rejalar tayyorlangani Saudiya – O‘zbekiston munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga chiqqanidan dalolat bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi SAP bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlik o‘rnatgan bo‘lib, ikki davlatning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardagi savdo-iqtisodiy aloqalari mustahkamlanmoqda, energetika va investitsiyaviy muhitni shakllantirishdagi ishtiroki kengaya boryapti. O‘zbekistonda SAPning bir qator kompaniyalari faoliyat yuritmoqda va bu o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchi bobning “O‘zbekiston va Saudiya Arabistonining xalqaro tashkilotlar doirasidagi aloqalari” deb nomlangan uchinchi paragrafida tadqiqotchi mamlakatlarning o‘zaro munosabatlarini xalqaro va mintaqaviy institutsional ko‘p tomonlama platformalar kontekstida tahlil etgan. Bunda asosan O‘zbekiston va SAPning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT), Islom taraqqiyot banki (ITB), Islom olami ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ISESCO), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Butunjahon ta’lim, bilim va madaniyat tashkiloti (YuNESKO), Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi (KADHK), Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) kabi ko‘p tomonlama platformalardagi hamkorlik muloqotlari, ularning mohiyati ochib berilgan.

O‘zbekiston 2022-yilning mart oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi xalqaro konferensiya davomida yangi tahrirda qabul qilingan BMTning Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi global strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Qo‘shma harakatlar rejasining muallifi va faol ishtirokchisidir. O‘zbekiston va SAP munosabatlarining istiqbollari baholanar ekan, ular ikki tomonlama munosabatlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha, jumladan, nizolarni hal qilish, gumanitar yordam ko‘rsatish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash borasidagi hamkorlik masalalarida katta salohiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston va SAPning xalqaro tashkilotlar doirasidagi munosabatlarida umumiy madaniy meros hamda strategik manfaatlar uyg‘unligiga asoslangan va jadal rivojlanayotgan sheriklik aloqalari aks etayotgani, har ikkala davlatda ham IHTdagi madaniy-ilmii hamkorlikdan tortib BMT va boshqa ko‘p tomonlama platformalardagi zamonaviy hamkorlikka qadar global va mintaqaviy muammolarni hal qilishda ishonchli sherikchilikni namoyish etish, mamlakatlar barqaror rivojlanishi, xavfsizlikni ta’minlash va madaniy almashinuv bo‘yicha yaqin hamkorlik uchun katta imkoniyatlar mavjudligi, ushbu

hamkorliklik nafaqat O‘zbekiston va SAPga, balki mintaqaviy barqarorlik va global taraqqiyotga ham xizmat qilishi mumkinligi borasida xulosalar chiqarilgan.

**“O‘zbekiston bilan Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarining istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobda O‘zbekiston va Saudiya Arabistonining o‘zaro munosabatlarida savdo-iqtisodiy sohaning o‘rni, uning imkoniyatlari, qolaversa, investitsiya muhitini yaratish imkoniyatlari, muammo va istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

Ushbu bobning “O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni savdo-iqtisodiy hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan birinchi paragrafida hamkorlikning asosiy iqtisodiy yo‘nalishlari tahlil etilgan hamda O‘zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritish jarayonlarining bugungi holati va kelgusi istiqbollari muhokama qilingan.

Tadqiqotda O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni savdo-iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan olimlarning fikrlari hamda tadqiqot institutlari va davlat idoralariining statistik ma’lumotlari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi bilan SAP o‘rtasidagi hamkorlik keyingi yillarda keng ko‘lamli sohalarni qamrab olib, yangi ko‘rinish kasb etayotgani, biroq, turli sohalarda erishilgan yutuqlarga qaramay, har ikki tomon muayyan muammo va qiyinchiliklarga duch kelayotgani qayd etilgan, muammolarni hal qilish yuzasidan nazariy takliflar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi bilan SAP o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanishi turli sohalarda ikki tomonlama hamkorlik mustahkamlanayotgan bir sharoitda ijobiy dinamika va o‘zaro aloqalar chuqurlashib borayotganini ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda o‘zaro hurmat prinsipi, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash manfaatlaridan kelib chiqib, ko‘p tomonlama tashkilotlar doirasidagi siyosiy aloqalar kuchaydi. Biroq hamkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri O‘zbekiston va SAPning geosiyosiy manfaatlaridagi farqdir:

birinchidan, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda, SAP esa Fors ko‘rfazida joylashgani ular tashqi siyosat va xavfsizlik masalalariga turlicha yondashishlariga olib keladi;

ikkinchidan, O‘zbekistonning qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari, Rossiya va Xitoy bilan aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan tashqi iqtisodiy yo‘nalishi ba‘zan Fors ko‘rfazining boshqa davlatlari, shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro aktorlar bilan yaqin hamkorlik qilayotgan SAPning tashqi iqtisodiy ustuvorliklariga ziddir;

uchinchidan, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqdagi geosiyosiy vaziyat, jumladan, hududiy mojarolar va terrorchilik guruhlarini tahdidi barqaror va uzoq muddatli hamkorlik aloqalari shakllanishini qiyinlashtirmoqda.

Shuningdek, Afgʻoniston va Suriyadagi mintaqaviy mojarolar va beqarorlik ikkala davlatni ham tashvishga solishi hamda ularning hamkorligiga qoʻshimcha qiyinchiliklar tugʻdirmoqda.

Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni soʻnggi yillarda Oʻzbekistonning ishbilarmonlik muhitidagi ishtirokini kengaytirishga intilayotgani, ammo bu koʻp hollarda ayrim sohalarnigina qamrab olishi tufayli imkoniyatlardan toʻliq foydalana olmayotgani maʼlum boʻldi. Dissertatsiyada eng yirik hamkorlik energetika sohasi bilan cheklanayotgani borasida fikrlar bildirilgan. Biroq hamkorlikni sogʻliqni saqlash, metallurgiya, qurilish materiallari ishlab chiqarish, axborot-kommunikatsiya sohasi, transport va logistika, fond bozorini rivojlantirish, turizm kabi qator yoʻnalishlarda birgalikda qoʻshma loyihalar ishlab chiqish va ularni yanada rivojlantirish respublikada mazkur sohalar taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi borasidagi xulosalar taqdim etilgan.

Shuningdek, Saudiya Arabistonining xalqaro hamkorlik strategiyasi “Nigoh — 2030” dasturining asosiy maqsadlariga erishilishi Markaziy Osiyo mintaqasi hamda uning yetakchi davlati hisoblangan Oʻzbekiston Respublikasi uchun ijtimoiy, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy rivojlanishning yuqori natijalariga olib kelishi mumkin.

Saudiya Arabistoni oʻzining yordam dasturlarini amalga oshirishdan tashqari, barqaror rivojlanish sohasida BMTning tegishli tuzilmalari va boshqa xalqaro tashkilotlarni ham qoʻllab-quvvatlamoda, iqlim oʻzgarishi muammosiga hozirgi va kelajakdagi global muammolardan biri sifatida katta eʼtibor bermoqda. Shunday ekan, Oʻzbekistonda kelgusida yuz berishi bashorat qilingan choʻllanish hamda Orol dengizining qurib qolishi kabi ekologik falokatlarning oldini olishda SAP bilan qoʻshma loyihalar ishlab chiqilishi mumkin.

